



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



ANDIJON VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO'RSATKICHLARI


2023- YIL YANVAR-AVGUST

ANDIJON VILOYATIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2023- yilning 1- sentabr holatiga Andijon viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 2 092 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 752 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarining 36,0 % Andijon shahrida joylashgan.

2023- yil 1- sentabr holatiga qurilish korxonalarini soni, birlikda



Andijon sh.	752
Xonobod sh.	41
Oltinko'l	112
Andijon	144
Baliqchi	72
Bo'ston	90
Buloqboshi	59
Jalaquduq	41
Izboskan	97
Ulug'nor	46
Qo'rg'ontepa	69
Asaka	186
Marhamat	85
Shahrixon	154
Paxtaobod	61
Xo'jaobod	83

1 161

Bino va inshootlar qurilishi

300

Fuqarolik obyektlarini qurish


631

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Shuningdek, Andijon shahrida 752 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 36,0 %), Asaka tumanida – 186 ta (9,0 %) qurilish korxonalarini mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-avgust uchun)

2023- yilning yanvar-avgust oylarida, Andijon viloyatida jami 4 738,2 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,9 % ni tashkil etdi.




Maʼlumot uchun: qurilish faoliyati – bu, oʻz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.



2023- yilning yanvar-avgust oylarida Andijon viloyatida qurilish ishlari

Shahar va tumanlarning hajmi va 2022- yilning mos davriga nisbati,
mlrd so'm va foizda




2023- yilning yanvar-avgust oylarida shahar va tumanlar kesimida xususan, Andijon shahri (1 681,0 mlrd so'm), Andijon tumani (562,1 mlrd so'm) va Shahrixon tumanida (338,4 mlrd so'm) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

2023- yilning yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2023- yilning yanvar-avgust oylarida Andijon viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 73,6 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 99,0 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 17,2 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,6 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 9,2 % ulushni va 2022- yilning mos davriga nisbatan 200,1 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

2023- yilning yanvar-avgust oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 68,5 % yoki 3 244,2 mlrd soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa jtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

194,3
mlrd soʻm

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 194,3 mlrd soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 6,0 % ni tashkil etdi.

6,0 %

1 895,4
mlrd soʻm

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 1 895,4 mlrd soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlari-dagi ulushi 58,4 % ni tashkil etdi.


58,4 %

1 154,5
mlrd soʻm

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 1 154,5 mlrd soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 35,6 % ni tashkil etdi.

35,6 %

Yillar kesimida yangi qurilishning hajmi va ulushi



2023- yilning yanvar-avgust oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari ulushi

Shahar va tumanlarning hajmi, *mlrd so'mda*


	Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish	Ulushi jamiga nisbatan % da
Andijon viloyati	3244,2	100,0
Andijon sh.	1078,9	33,3
Xonobod sh.	112,4	3,5
Oltinko'l	200,6	6,2
Andijon	316,7	9,8
Baliqchi	82,5	2,5
Bo'ston	154,6	4,8
Buloqboshi	53,8	1,7
Jalaquduq	87,5	2,7
Izboskan	95,0	2,9
Ulug'nor	65,3	2,0
Qo'rg'ontepa	168,5	5,2
Asaka	122,9	3,8
Marhamat	135,7	4,2
Shahrixon	250,5	7,7
Paxtaobod	169,3	5,2
Xo'jaobod	150,1	4,6

2023- yilning yanvar-avgust oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Andijon shahri (1 078,9 mlrd so'm), Andijon tumani (316,7 mlrd so'm), Shahrixon tumanida (250,5 mlrd so'm) va Oltinko'l tumanida (200,6 mlrd so'm) qayd etildi.

2023- yilning yanvar-avgust oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Jami bino va inshootlarni qurish, mlrd so'm



Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015- yilning 1- yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq **"Qurilish" faoliyati bo'yicha "faoliyat turi bo'yicha o'z kuchi bilan amalga oshirilgan ishlar hajmi"** ko'rsatkichi qo'llaniladi..


Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 2,8 % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,9 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning mos davriga nisbatan 1,3 % punktga ko'payib, 64,1 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yilning mos davriga nisbatan 2,2 % punktga kamayib, 33,1 % ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-avgust oylarida bino va inshootlar qurilishi


Shahar va tumanlarning hajmi, *mlrd so'mda*



Ma'lumot uchun: Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Shahrixon (82,0 %), Marhamat (81,3 %) va Paxtaobod tumanlari (80,3 %)da kuzatildi.

2023- yilning yanvar-avgust oylarida fuqarolik
obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari
Korxonalar turlari bo'yicha

Fuqarolik obyektlarini qurish, *mlrd so'm*




Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, truboprovodlar va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 11,4 % ni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,2 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,2 % punktga kamayib, 88,6 % ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-avgust oylarida fuqarolik obyektlarini qurish

Shahar va tumanlarning hajmi, *mlrd so'mda*




Ma'lumot uchun: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Oltinko'l tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 25,6 %), Xonobod shahrida (26,3 %) va Andijon tumanida (21,4 %) kuzatildi.

2023- yilning yanvar-avgust oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, mlrd so'm




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan 1,2 % punktga ko'paydi va 1,4 % ni tashkil etdi.

Qolgan 98,6 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 1,2 % punktga kamaydi.

2023- yilning yanvar-avgust oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


Shahar va tumanlarning hajmi, mlrd so'mda



Ma'lumot uchun: Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Oltinko'l tumanida (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 14,4 %), Xonobod shahrida (13,8 %) va Bo'ston tumanida (11,4 %) kuzatildi.

2023- yilning yanvar-avgust oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, *mlrd so'mda*



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.


Jami hajmga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor


2022- yilning mos davri bilan solishtirganda –
125,4 %

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda –
104,9 %

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda –
102,1 %

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-avgust oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-avgust oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 194,3 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 125,4 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 0,6 % ga ko'payib, 4,1 % ni tashkil etdi.

Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2023- yilning yanvar-avgust oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi




2023- yilning yanvar-avgust oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 71,5 % to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,8 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,9 % ni tashkil etgan holda 3 389,4 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.



2023- yilning yanvar-avgust oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar


Shahar va tumanlarning hajmi, mlrd soʻmda



Maʼlumot uchun: koʻrib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Andijon shahrida (1 307,5 mlrd soʻm), Andijon tumanida (475,9 mlrd soʻm) va Shahrixon tumanida (267,8 mlrd soʻm) qayd etildi.

2023- yilning yanvar-avgust oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektor

Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi




Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 24,4 % ni yoki 1154,5 mlrd soʻmni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 102,1 % ni tashkil etdi. Shundan 955,8 mlrd soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 102,1 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 50,8 mlrd soʻmni va 97,3 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 148,0 mlrd soʻmni va 103,7 % ni tashkil etdi.



2023- yilning yanvar-avgust oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektor


Shahar va tumanlarning hajmi, mlrd soʻmda



Maʼlumot uchun: koʻrib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Andijon shahrida (221,5 mlrd soʻm), Jalaquduq tumanida (122,3 mlrd soʻm) va Ulugʻnor tumanida (105,3 mlrd soʻm) qayd etildi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Yanvar-avgust oylaridagi hajm, mlrd so'mda



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 179,4 mlrd so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 4 558,8 mlrd so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 3,8 % va 96,2 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun: nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Xonobod shahar (ushbu viloyatdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 %), Oltinko'l tumanida (qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 %) va Paxtaobod tumanida (ushbu viloyatdagi umumiy qurilish ishlarining 100,0 % i) qayd etildi.

Qurilish ishlari

USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari maydoni rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlariga – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlari kiritiladi.

Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi
Tel.: 74 224-80-00 (6020)